

MILLIY EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH: TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Abduraufov Abdulatif ¹

¹ O‘zbekiston respublikasi Bank – Moliya Akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:02.05.2025

Revised: 03.05.2025

Accepted:04.05.2025

KALIT SO‘ZLAR:

eksport,
raqobatbardoshlik,
milliy mahsulotlar,
tashqi savdo siyosati,
diversifikatsiya,
logistika, marketing,
eksport kreditlash,
sertifikatlash, yangi
bozorlar, iqtisodiy
rivojlanish

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritilgan. Global iqtisodiy integratsiya va xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada eksport faoliyatining hozirgi holati tahlil qilinib, asosiy muammo va to‘siqlar aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida tashqi savdoni rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan hamda eksport tarkibini diversifikatsiyalash, logistika tizimini takomillashtirish va qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola nazariy va amaliy jihatdan eksportni rag‘batlantirishga qaratilgan siyosatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

KIRISH. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining jadallasuvi fonida milliy iqtisodiyotlar oldida eksport raqobatbardoshligini ta‘minlash dolzarb vazifaga aylandi. Xalqaro bozorlardagi o‘zgaruvchan sharoitlar, texnologik yangilanishlar va iste‘molchilarning talablari ortib borayotgani sababli, har bir mamlakat o‘z eksport salohiyatini oshirish yo‘llarini izlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksportni rag‘batlantirish va milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish bo‘yicha qator tizimli islohotlarni amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021 yillarda va undan keyingi

rivojlanish strategiyalarida eksport salohiyatini oshirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilangan. Xususan, bojxona tartibotlarining soddalashtirilishi, eksportga yoʻnaltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun soliq va kredit imtiyozlari yaratilishi, “yagona darcha” tizimi orqali eksport amaliyotlarining avtomatlashtirilishi bu boradagi muhim tashabbuslardandir. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan tahlillarda ham Oʻzbekistonning soʻnggi yillardagi tashqi savdo siyosati ijobiy baholangan.

Nazariy jihatdan eksport raqobatbardoshligi quyidagi asosiy omillar orqali shakllanishi qayd etilgan: mahsulot sifati va innovatsionligi, ishlab chiqarish tannarxining pastligi, logistika tizimi samaradorligi, eksportchi korxonalarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash darajasi, va albatta, xalqaro savdo bitimlari va bojxona siyosatining qulayligi. Porterning "Raqobat ustunligi" nazariyasiga koʻra, milliy raqobat ustunligi faqat resurslarga emas, balki mahsulotlar yaratish, bozor tahlili va tashqi muhitga moslashish qobiliyatiga ham asoslanadi. Oʻzbekiston misolida bu yondashuvni mahalliy sharoitga moslashtirish, xomashyo bazasiga tayanmasdan, qayta ishlovchi va yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlarga oʻtish zarurati yaqqol namoyon boʻlmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, eksport raqobatbardoshligini oshirish faqat ishlab chiqarish hajmini emas, balki mahsulotlarning sifat, innovatsionlik, sertifikatlash va xalqaro standartlarga mosligini ham oʻz ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, maqolada Oʻzbekiston Respublikasida tashqi savdoni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boʻyicha ilmiy-nazariy asoslangan takliflar yoritiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global oʻzgarishlar, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining kuchayishi va xalqaro bozorlardagi raqobatning tobora keskinlashuvi har bir davlatdan oʻzining iqtisodiy siyosatini qayta koʻrib chiqishni va eksport salohiyatini kuchaytirishni talab etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun xalqaro iqtisodiy maydonda mustahkam oʻrin egallash, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish va tashqi bozorlarda barqaror raqobatbardoshlikni taʼminlash strategik ahamiyatga ega. Oʻzbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonlardan mustasno emas. Aksincha, mamlakatimiz soʻnggi yillarda oʻzining tashqi iqtisodiy faoliyatini jadallashtirish, eksport geografiyasini kengaytirish va eksport qilinayotgan mahsulotlar sifatini oshirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017 yildan buyon amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, xususan, tashqi savdo rejimini soddalashtirish, bojxona va soliq yukini kamaytirish, eksportchilarga subsidiya va

imtiyozlar ajratish kabi chora-tadbirlar mamlakat eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi. Biroq mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan, eksportning hududiy va tarmoqlar bo'yicha nomutanosibligi, xomashyo eksportining ustunligi, logistik infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi omillar milliy eksportning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston eksportining asosiy qismini hali ham xomashyo mahsulotlari – paxta tolasi, rangli metallar, minerallar tashkil etmoqda. Bunday holat esa eksport hajmining barqarorligini ta'minlashga, xalqaro bozorlarning o'zgaruvchan kon'yunkturasiga bog'liq bo'lmaslikka xalaqit bermoqda. Ayni paytda, tayyor mahsulotlar, qayta ishlangan tovarlar, innovatsion va texnologik mahsulotlar eksportini oshirish zarurati yanada dolzarblashmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik darajasini oshirish hamda xalqaro maydonda "Made in Uzbekistan" brendining nufuzi va ishonchliligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotning dolzarbligi, shuningdek, global ta'minot zanjirlarida ro'y berayotgan uzilishlar, transport-logistika tizimida yuzaga kelayotgan muammolar, geosiyosiy vaziyatning beqarorligi va iqlim o'zgarishlarining iqtisodiy oqibatlarini fonida yanada oshib bormoqda. Bunday sharoitda O'zbekistonning eksport strategiyasini qayta ko'rib chiqish, yangi zamonaviy yondashuvlar asosida milliy mahsulotlar eksportini raqobatbardosh va diversifikatsiyalangan shaklda rivojlantirish talab etiladi. Shu boisdan, milliy eksportning raqobatbardoshligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy siyosatning markaziy vazifalaridan biri, balki davlat suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotning kafolati sifatida ham qaralishi lozim. Ushbu maqolada aynan shu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy masalalarni kompleks tarzda o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Adabiyotlar tahlili. Milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish va tashqi savdoni rivojlantirishga doir masalalar bugungi kunda nafaqat iqtisodchi olimlar, balki davlat siyosatini shakllantiruvchi tashkilotlar, xalqaro moliyaviy institutlar va soha mutaxassislari tomonidan ham keng ko'rib chiqilmoqda. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha yondashuvlar, asosan, uch asosiy yo'nalishda shakllangan: nazariy asoslar, xalqaro tajriba, va milliy sharoitga mos strategik yondashuvlar. Avvalo, nazariy jihatdan eksport raqobatbardoshligini shakllantirishda M. Porterning "Raqobat ustunligi" (Competitive Advantage) nazariyasi asosiy konseptual poydevor bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati to'rt

omil — resurslar, talab sharoiti, bog‘liq va yordamchi tarmoqlar, va korxonalarning raqobatbardoshligiga ta’sir qiluvchi strategiya va tuzilmaga bog‘liq. Ushbu yondashuv keyingi tadqiqotlarda yanada takomillashtirilib, mahsulot innovatsiyasi, eksport infratuzilmasi, savdo siyosati va davlat qo‘llovi kabi omillar bilan boyitilgan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda (masalan, Krugman, Helpman, Melitz va boshqalarning ishlarida) eksport salohiyatining o‘ssishi uchun innovatsion faoliyat, texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligi va ixtisoslashuv darajasining ahamiyati ta’kidlangan. Ularning tadqiqotlarida eksportning raqobatbardoshligini oshirishda “klasterlash” yondashuvi, sanoatning zamonaviy tarmoqlariga yo‘naltirilgan davlat siyosati va tashqi bozorlar bilan samarali integratsiyalashuv muhim vositalar sifatida qayd etilgan.

O‘zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlariga murojaat qilsak, A. Vahobov, B. Musurmonov, S. Murodov, Sh. Qurbonov, I. Qurbonov kabi olimlar o‘z izlanishlarida mamlakat eksportining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va mavjud muammolarni chuqur tahlil qilgan. Xususan, A. Vahobovning asarlarida eksport faoliyatini institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligi, kichik va o‘rta biznesning tashqi bozorga chiqishda duch kelayotgan to‘siqlari, bojxona tartibotlarining samarasizligi kabi jihatlar alohida yoritilgan. B. Musurmonovning tadqiqotlarida esa eksport mahsulotlari tarkibining diversifikatsiyalangan emasligi, xomashyo eksportining yuqori ulushi, va eksport geografiyasining tor doiraga qaratilganligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan. U o‘z ishlarida eksportni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaviy loyihalar, subsidiyalar, va marketing xizmatlariga e’tibor qaratishni taklif etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “Iqtisodiyot va prognozlash” ilmiy jurnallarida chop etilgan maqolalar eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu manbalarda so‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar, ularning samaradorligi va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda tutgan o‘rni to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Xalqaro tashkilotlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan tayyorlangan mamlakat hisobotlari esa O‘zbekiston eksportining raqobatbardoshlik darajasi va tashqi savdo muhitining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahliliy baholashlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Jahon bankining “Doing Business” hisobotlari, Osiyo taraqqiyot bankining “Country Partnership Strategy” hujjatlari va “Global Competitiveness Index” kabi manbalar orqali O‘zbekistonning eksport imkoniyatlari va cheklovlari xolisona tahlil etilgan. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar milliy eksport

raqobatbardoshligini oshirish uchun kompleks va ko'p qirrali yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Mavzuning ilmiy jihatdan keng o'rganilgan bo'lishiga qaramasdan, mavjud tadqiqotlarda eksport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mintaqaviy strategik yondashuvlar ishlab chiqish, hamda xalqaro bozor talablariga mos sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda izlanishlar yetarli emas. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga, ilmiy va amaliy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Munozara. Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasida eksport salohiyatini oshirish bo'yicha muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash borasida hali hal qilinishi lozim bo'lgan qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, eksport tarkibining cheklanganligi, xomashyo mahsulotlarining yuqori ulushi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanmaganligi va eksportchilarga zarur bo'lgan institutsional xizmatlarning sustligi mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda eksport hajmining o'sish sur'atlarida ijobiy dinamikaga erishilgan bo'lsa-da, bu o'sish asosan narx omillariga bog'liq bo'lib, hajmiy va sifat jihatidan yetarlicha chuqurlashmagan. Jumladan, neft-gaz mahsulotlari, rangli metallar va paxta kabi an'anaviy xomashyo mahsulotlari hali ham eksportning asosiy qismini tashkil qilmoqda. Bunday tuzilma esa mamlakatni global bozorlar kon'yunkturasiga bog'lab qo'yadi va iqtisodiy xavfsizlik darajasini pasaytiradi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari eksportining yetarli darajada kengaymasligi, qayta ishlangan mahsulotlar ulushining pastligi esa yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarning rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Yana bir muhim muammo — eksport geografiyasining torligi bo'lib, O'zbekiston eksportining asosiy qismi yaqin mintaqaviy davlatlarga (Rossiya, Qozog'iston, Xitoy) to'g'ri kelmoqda. Bu esa xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda tahlil va marketing salohiyatining kuchsizligini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo, Amerika qit'asi kabi strategik bozorlarga kirish uchun yetarli institutsional asoslar, diplomatik va iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Eksport marketingi, xorijiy bozorlarga mos mahsulot sertifikatlash tizimlari, xalqaro sifat standartlari talablariga javob beradigan ishlab chiqarish liniyalarining yo'qligi bu jarayonda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, eksportchi korxonalar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining cheklanganligi, tijorat banklarining eksport kreditlarini taqdim etishdagi passivligi va sug'urta tizimining zaifligi ham raqobatbardoshlikni cheklovchi omillardan biridir. Dunyo tajribasi ko'rsatadiki, eksportni qo'llab-quvvatlashda

maxsus moliyaviy institutlar, eksport-kredit agentliklari va sug'urta kompaniyalarining faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda, ushbu maqolada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar – eksportni diversifikatsiyalash, logistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, eksportchi korxonalar uchun imtiyozli moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish, xalqaro savdo tashkilotlari bilan integratsiyani chuqurlashtirish, eksport marketingi xizmatlarini yo'lga qo'yish va innovatsion mahsulotlar eksportini rag'batlantirish — ayni vaqtda mamlakat uchun eng muhim strategik yo'nalishlar bo'lib xizmat qiladi. Muzokaralar natijasida aniqlanganki, eksport sohasidagi muammolar faqat iqtisodiy emas, balki tashkiliy, institutsional, siyosiy va texnologik xarakterga ega. Shu bois, ularga kompleks yondashuv zarur. Eksport siyosatining muvaffaqiyati nafaqat makroiqtisodiy muvozanatga, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuvchanligiga, davlat tomonidan yaratilayotgan muhitga va innovatsion rivojlanishga ham bog'liqdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning milliy eksport raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo'llari ko'rib chiqildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eksportni diversifikatsiya qilish, tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, va eksportchilarga moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish orqali mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin. Bunda, davlat tomonidan eksport siyosatini yanada takomillashtirish, yangi xalqaro aloqalar o'rnatish, marketingni kuchaytirish va mahsulotlar eksporti uchun zarur bo'lgan sertifikatsiyalash tizimini joriy etish lozim. O'zbekistonning tashqi savdo siyosatidagi tizimli muammolarni hal qilish va eksportni rivojlantirish orqali mamlakatning global iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vahobov A.V. "O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining zamonaviy bosqichlari." – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Musurmonov B.M. "Eksport salohiyatini oshirishda davlat siyosatining o'rni." – Iqtisodiyot va ta'lim, 2021, №3.
3. Qurbonov Sh.S. "O'zbekiston eksportining tarkibiy o'zgarishlari va rivojlanish istiqbollari." – TDIU ilmiy jurnali, 2020.
4. Murodov S. "Eksport faoliyatida kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari." – Ilmiy-amaliy jurnal "Innovatsion iqtisodiyot", 2021.

5. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. "International Economics: Theory and Policy." – Pearson, 2017.
6. Porter M. "Competitive Advantage." – Free Press, 1985.
7. Jahon banki. "Uzbekistan Country Economic Update." – World Bank Report, 2023.
8. Osiyo Taraqqiyot Banki. "Uzbekistan: Country Partnership Strategy 2022–2026." – ADB Report, 2022.
9. "Iqtisodiyot va prognozlash" jurnali, 2021-2023 yillardagi sonlari.
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy hisobotlari, 2022–2024.

